

MAHABXORAT DOSTONIDA ANTOPOLOGIK MASALALAR QO'YILISHI

Nizomova Odina Shavkat qizi

TDSHU, "Sharq falsafasi va madaniyati" yo'nalishi magistranti

tel: (91) 1908100

Anotatsiya. Ushbu maqolada Qadimgi Hindistonda falsafaning ilk kurtaklari shakllanishi, madaniyati, tarixida alohida o'rin tutgan buyuk epos "Mahabxorat" dostoning yaratilishi, uning hind xalqi hayotidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. "Mahabxorat" dostonidagi insonning borliqdagi o'rni va ahamiyati, uning jamiyatdagi o'rni haqida qimmatli ma'lumotlar bilan tanishish bizga qadimgi Hindiston falsafasini chuqurroq o'rganishimizga imkoniyat beradi.

Tayanch iboralar: Hindiston falsafasi, "Mahabxorat" dostoni, Pandavalar, Kauravlar, "Bhagavadgita", Krishna, Arjuna, Inson, insonning bilish haqida, taqdir masalasi.

"Mahabxorat" dostoni nafaqat tarixiy va adabiy manba sifatida balki, bevosita qadimgi hind xalqining Ijtimoiy va falsafasiy masalalarini ochib beradi. "Mahabxorat" dostonining asosiy syujetlari jangnomalarni tashkil etadi. Unda qadimiy qahramonlar ularning jasorati va saxovati, mardligi va zafari haqida yozilgan. Aynan shu qahramonlar hayoti asosida biz qadimgi Hindiston falsafiy tafakkurini anglashimiz mumkin.³⁶

Boshqa ko'plab dostonlar singari, "Mahabxorat" ham insonning iroda erkinligi va taqdir irodasi o'rtasidagi munosabatlar masalasini hal qilishga urinish atrofida qurilgan. P. A. Grintser ta'kidlaganidek, birinchi qarashda dostonning asosiy g'oyasi taqdirning qudratliligi va inson o'z yo'lida biron narsani o'zgartira olmasligi haqidagi g'oyadir; ammo dharma tushunchasi va dostonida sezilarli darajada to'ldirilgan va karma haqidagi ta'limot, asarning axloqiy dominantini tashkil etadigan, birinchi navbatda burchga oid ba'zi axloqiy g'oyalarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.³⁷ Garchi, mualliflarning fikriga ko'ra, inson kelajakni o'zgartira olmasa ham, unga hayotning mazmuni va qadr-qimmatini belgilaydigan axloqiy tanlov ishonib topshirilgan - boshqacha qilib aytganda, taqdirning irodasi ham, insonning axloqiy javobgarligi ham tan olinadi.

"Mahabxorat" ta'limotiga ko'ra, inson haqiqatan ham taqdir taqdirini o'zgartira olmaydi, o'limni kechiktirmaydi yoki tayyor mag'lubiyat o'rniga g'alaba qozonmaydi. "Mahabxorat" ayni paytda o'z qahramonlarining axloqiy mas'uliyatini angelaydi, o'z harakatlarimizni taqdirga bo'ysunish bilan birlashtirishga o'rgatadi.³⁸

Krishnaning aytishicha, insonga dunyoni birdamlikda ko'rish, borliqning asl maqsadlarini anglash uchun berilmaganligi sababli, u faqat unga berilgan vazifani o'z qobiliyatining eng yuqori darajasida bajarishi mumkin, uning harakatlarining ko'rinadigan oqibatlarini haqida qayg'urmaydi. "Mahabxorat" dostonida inson borliqda kichik bir qum

³⁶ Sotiboldi Yo'ldoshev. "Mahabharata yoki Bharata avlodlari jangnomasi". Toshkent: 1966. 216b.

³⁷ Гринцер П. Великий эпос Индии Махабхарата. Рамаяна. М., 1974. – С.10.

³⁸ С.Липкина. Великий эпос Индии. Художественная литература; Москва. 1974. 326с.

zarrachasi sifatida emas. Balki koinotni o'zgartirish kuchiga ega bo'lgan, o'z taqdirini o'zgartira oladigan mavjudod sifatida keladi. "Mahabxorat" da inson borliqqa aralashadi va uni o'zgartiradi. Insonni bu dunyodagi hech qanday narsa xotirjamlik, baxt bermasligi faqatgina nirvana orqali bunga erishish mumkin. Lekin insonning hayot oldidagi, jamiyat oldidagi burchlari mavjud. "Mahabxorat" da taqdir masalasi juda muhim. Inson taqdiri belgilab qo'yilgan faqat u shu belgilangan doirada harakat qiladi. Insonning qanday amal bajarishi oldindan taqdirda yozilgan bo'ladi. Lekin qachon inson o'zini anglasa koinotni ham o'zgartirib yuboradi. Inson bu dunyoga kelib o'zining burchlarini bajaradi, axloqiy dharmasiga amal qiladi, bu dunyodagi xohish istaklaridan vos kechibgina xotirjamlik nirvana yetishadi. Chunki bu dunyodagi berilgan hech qanday narsa insonni baxtli qilmaydi. Masalan Pandavlar urushda g'olib bo'lishdi, lekin bu ularga chinakam baxt bermadi, bu g'alaba qarindoshlar o'limi evaziga keldi. Faqatgina asar oxirida ular o'zlarini dunyoviy istaklardan halos qilgan holda, xudolar yoniga ko'tarilishdi, hamda ruh va ong xotirjamligiga erishgan.

"Mahabxorat" da bilish juda muhim ahamiyatga ega. Inson o'zini anglashi orqali dunyoni biladi. Ilm yani idrok etish insonga axloqiy burchini, buyuk ishni artani bajarish uchun muhim sanaladi. Aynan idrok orqali inson borliqni o'zini anglaydi. Krishna dunyoni anglash bilishda insonni beparvolik dunyoviy istaklardan vos kechishga chaqiradi.

Mahabxoratda Xudolar bilan insonlar o'rtasidagi aloqa dunyoni saqlab qolishda muhim sanaladi. Dunyodagi tartibsizlikni bartaraf etishda xudolar insonlar bilan birgalikda kurashadi.³⁹

Xulosa qilib aytganda, "Mahabxorat" dostonining yaratilishi bevosita shu davrdagi hind tafakkuri namunasi sifatida, hind xalqining antropologik ya'ni inson haqidagi qarashlarini bayon etadi. "Mahabxorat" dostonida asosiy qo'yilgan masala bu insonning hayotdan maqsadi, bu dunyoda qanday yomon amallarni qilmaslik, va aksincha, qanday amallarni qilish kerakligi ochib berilgan. Masalan inson ochko'zlik, hasadgo'ylik, fitna, g'azabdan yiroq bo'lishi haqida qahramonlar hayoti bn ochib beriladi.

ADABIYOTLAR:

1. Sotiboldi Yo'ldoshev. "Mahabharata yoki Bharata avlodlari jangnomasi". Toshkent: 1966. 216b.
2. D. Po'latova, M.Qodirov, M. Ahmedova "Falsafa tarixi (Sharq falsafasi)" o'quv qo'llanma – T.: 2013.
3. Гринцер П.Великий эпос Индии Махабхарата, Рамаяна. М.: Астр. -1974. 421с.
4. С.Липкина. Великий эпос Индии.Художественная литература; Москва.1974. 326с.

³⁹ D. Po'latova, M.Qodirov, M. Ahmedova "Falsafa tarixi (Sharq falsafasi)" o'quv qo'llanma – T.: 2013.